

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JULIAN BARNSNING “FLOBERNING TO‘TIQUSHI” POSTMODERN BIOGRAFIK ROMANIDA OBYEKTIV HAQIQATNING SUBYEKTIV TALQINI

Tursunova Muxlisa Vaxobovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o‘qituvchi (PhD).

e-mail: mukhlisa_vakhobovna@list.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3552-4547>

Аннотация.

Mazkur maqolada Julian Barnsning *Floberning to‘tiqushi* postmodern biografik romanida obyektiv haqiqatning subyektiv talqini masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda biografiya janriga postmodern dekonstruktiv yondashuv hamda yozuvchi hayoti va ijodini badiiy qayta talqin qilish mexanizmlari yoritiladi. Asarda XIX asr fransuz adabiyotining yirik vakili Gustav Flober hayotining bosh qahramon va hikoyachi Jeffri Breysveytning shaxsiy kechinmalari, xotiralari va mushohadalari orqali tasvirlanishi obyektiv biografik haqiqatning nisbiy va subyektiv xarakterini namoyon etishi asoslanadi. Roman tarkibidagi xronologiya, lug‘at, manifest, imtihon varaqasi, tanqidiy esse, apokrif, bestiariy, biografiya va avtobiografiya kabi turli janr hamda hujjatli shakllarning qorishuvi postmodern narrativning o‘ziga xos xususiyati sifatida tadqiq etiladi. Shuningdek, romanda intertekstual allyuziyalar va janrlararo sintez vositasida tarixiy-biografik haqiqatning muallif tomonidan qayta tiklanishi va talqin qilinishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida roman postmodern biografiyaning nazariy va badiiy imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim asar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Julian Barns, *Floberning to‘tiqushi*, postmodernizm, biografik roman, biografiya, obyektiv haqiqat, subyektiv talqin, dekonstruksiya, janrlar qorishmasi, metaadabiyot.

СУБЪЕКТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБЪЕКТИВНОЙ ИСТИНЫ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОМ БИОГРАФИЧЕСКОМ РОМАНЕ ДЖУЛИАНА БАРНСА «ПОПУГАЙ ФЛОБЕРА»

Турсунова Мухлиса Вахобовна

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется проблема субъективной интерпретации объективной истины в постмодернистском биографическом романе Джулиана Барнса «Попугай Флобера». В исследовании рассматриваются постмодернистский деконструктивистский подход к жанру биографии, а также механизмы художественного переосмысления жизни и творчества писателя. Обосновывается, что изображение жизни выдающегося представителя французской литературы XIX века Гюстава Флобера через личные переживания, воспоминания и размышления главного героя и рассказчика Джеффри Брейтуэйта раскрывает относительный и субъективный характер объективной биографической истины. Сочетание в структуре романа различных жанровых и документальных форм, включая хронологию, словарь, манифест, экзаменационный лист, критическое эссе, апокриф, bestiary, биографию и автобиографию, исследуется как характерная особенность постмодернистского нарратива. Кроме того, рассматривается авторская реконструкция и интерпретация историко-биографической истины посредством интертекстуальных аллюзий и межжанрового синтеза. В результате исследования роман оценивается как значимое произведение, раскрывающее теоретические и художественные возможности постмодернистской биографии.

Ключевые слова: Джулиан Барнс, «Попугай Флобера», постмодернизм, биографический роман, биография, объективная истина, субъективная интерпретация, деконструкция, смешение жанров, металитература.

THE SUBJECTIVE INTERPRETATION OF OBJECTIVE TRUTH IN JULIAN BARNES'S POSTMODERN BIOGRAPHICAL NOVEL FLAUBERT'S PARROT

Tursunova Muxlisa Vaxobovna

Uzbekistan State World Languages University, Senior Lecturer (PhD).

Abstract.

This article analyzes the subjective interpretation of objective truth in Julian Barnes's postmodern biographical novel *Flaubert's Parrot*. The study examines the postmodern deconstructive approach to the genre of biography and the mechanisms through which the writer's life and literary work are artistically reinterpreted. It argues that the representation of the life of Gustave Flaubert, a major figure in nineteenth-century French literature, through the personal experiences, memories, and reflections of the protagonist and narrator Geoffrey Braithwaite reveals the relative and subjective nature of objective biographical truth. The novel's combination of various genres and documentary forms—including chronology, dictionary, manifesto, examination paper, critical essay, apocrypha, bestiary, biography, and autobiography—is examined as a distinctive feature of postmodern narrative. The article also explores the author's reconstruction and reinterpretation of historical and biographical truth through intertextual allusions and intergeneric synthesis. The study concludes that the novel is a significant work demonstrating the theoretical and artistic possibilities of postmodern biography.

Keywords: Julian Barnes, *Flaubert's Parrot*, postmodernism, biographical novel, biography, objective truth, subjective interpretation, deconstruction, genre hybridity, metaliterature.

Kirish. Julian Barnsning *Floberning to'tiqushi* romani 1984-yilda chop etilgan bo'lib, taniqli fransuz yozuvchisi Gustav Floberning (1821–1880) hayot yo'li va ijodiga o'ziga xos tarzda yondashib, uni haqqoniy tasvirlagan asar hisoblanadi. Julian Barnsning e'tiroficha, unga adib sifatida shon-shuhrat olib kelgan, eng yaxshi sotilgan, bir necha mukofotlarga sazovor bo'lgan va bir necha tillarga tarjima qilingan asar (9, 24) aynan *Floberning to'tiqushidir*. Mazkur romanga "Kembridj postmodernizm adabiyoti tarixi" adabiy-tanqidiy qo'llanmasida 1980-yillarning eng ko'p iqtibos keltirilgan va juda qisqa muddat ichida Umberto Ekoning *Atirgul ismi* kabi mumtoz postmodern asarlar qatorida e'tirof etilgan shohona asar (14, 315) deya ta'rif beriladi. *Floberning to'tiqushi* — postmodernizmning tarixiy metaadabiyot namunasidir, ammo ayni shu yo'nalishda yozilgan asarlardan farqli ravishda tarixiy-biografik metaadabiy roman bo'lib, biografiya janriga dekonstruktiv yondashuv asosida yozilgan (15, 117). Shu boisdan Julian Barnsning *Floberning to'tiqushi* asarini postmodern biografik roman sifatida tasniflash mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Postmodernizm oqimida yozilgan biografik romanlar an'anaviy biografik romanlardan anchagina farq qiladi. An'anaviy uslubda yozilgan biografiya janrining nazariy asoslari bir necha yirik adabiy lug'atlar va qo'llanmalarda o'z aksini topgan. Oksford adabiy atamalar qisqacha lug'atida biografiya janriga "Biror-bir shaxsning hayotini hikoya qiluvchi tarixiy asar yoki xuddi shunday asarlarni yozish amaliyoti" (*A narrative history of the life of some person; or the practice of writing such works*) (3, 117) deya ta'rif beriladi. Adabiy atamalar glossariysida "Biografiya ma'lum bir shaxsning to'liq tarjimaiyoli, fe'l-atvorini, temperamentini, u yashagan muhitni, uning faoliyat turi va tajribasini tasvirlash" (*The name now connotes a relatively full account of a particular person's life, involving the attempt to set forth character, temperament, and milieu, as well as the subject's activities and experiences*) (1, 25) ma'nosini anglatishi bayon qilingan. Biografiyaga Adabiy atamalar va adabiyot nazariyasi lug'atida inson hayoti haqidagi yozishmalar va tarixning bir bo'limi (*An account of a person's life, and a branch of history*) (7, 95) deya izoh beriladi.

Muhokama. Ammo postmodern yozuvchilar nazdida biografiyaga janr sifatida berilgan bu kabi sharhlar jo'n bo'lib, bunday ruhda yozilgan asarlar hech qanday badiiy ahamiyat kasb eta olmaydi, natijada arxiv uchun yaratilgan hujjatga aylanib qoladi. Sababi, postmodernistlar tarix konsepsiyasiga skeptik yondashadilar va bu, o'z navbatida, tarixiy metaadabiyotning asl mazmunini o'zida aks ettiradi. Qolaversa, taniqli kanadalik adabiy tanqidchi Linda Hatchn "tarixiy metaadabiyot — postmodernizm adabiyotining amaldagi analogiyasi" (12, ix) ekanini ta'kidlaydi. XVII asr ispan adabiyotining yirik namoyandasi, *Don Kixot* asari muallifi Migel Servantesning tarixni "haqiqatning onasi, vaqtning dushmani, amallar zaxirasi, bugunning namunasi va maslahatchisi, kelajakning kengash raisi" sifatida tasvirlashi postmodernist ziyolilar nazdida bir ritorika — so'z san'ati namunasi (15, 58) xolos. Postmodernizm oqimi tarixning haqiqatni to'laqonli yoritadigan kuchga ega emasligini va "tarix — o'tmish emas, balki o'tmishda yaratilgan hujjatlar va boshqa materiallarga asoslangan hikoyadir" (15, 99) degan g'oyani ilgari suradi.

Biografik asarlar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ilk biografik asar yunon tarixchisi Plutarx qalamiga mansub bo'lib, taxminan 100-yillarda yozilgan va G'arb adabiyotidagi ilk biografik asar sifatida *Bioi paralleloi* (Qiyosiy hayotnomalar) deb nomlangan. Asar muallifi bir necha yunon yo'lboshchilarining qahramonlik yurishlarini o'sha davrda yashagan ko'pgina rimlik qahramonlarning hayotlari bilan solishtiradi. Asar 1579-yilda Ser Tomas Nors tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan va U. Shekspirning rimliklar hayotidan olib yozilgan asarlarining asosiy manbasi bo'lib xizmat qilgan. O'rta asrlar ingliz adabiyotida yaratilgan biografik asarlar hagiografiya (*hagiographies*) (1, 25) deb nomlanib, asosan monarxlar va xristian cherkovi vakillarining hayotini yoritishga bag'ishlangan.

Ingliz adabiyotida zamonaviy adabiy me'yorlar asosida yozilgan birinchi biografik asar 1640-yilda yozilgan

Ayzek Volton qalamiga mansub *The Life of Dr. John Donne* (Jon Donning hayoti) asari bo'lsa-da, XVIII asrda yashab ijod qilgan Semuel Jonson ingliz adabiyotida biografiyaga asos solganligi ta'kidlanadi. *Life of Mr Richard Savage* (Janob Richard Savajning hayoti, 1744) va *Lives of the Most Eminent English Poets* (Ingliz shoirlarining hayoti, 1779–81) kabi biografik asarlar Semuel Jonson tomonidan yozilgan xuddi shunday asarlar qatorida tilga olinadi. XIX asrga kelib biografiya ensiklopediya va lug'atlar singari milliy ma'lumotlar jamlangan qisqacha qo'llanmalar ko'rinishida nashr qilina boshlandi. Bunga 1811–1820-yillarni qamragan L. G. Misho tomonidan yaratilgan fransuz tilidagi *Biography Universelle* (Universal biografiya) va Lesli Stiven tomonidan 1885–1890-yillarda chop etilgan *British Dictionary of National Biography* (Britaniya milliy biografiya lug'ati) kabilarni misol qilish mumkin.

XIX asrda adabiy doiralarda va omma orasida biografiyani o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi sabab Fransiyada adabiyotshunoslik sohasida biografik metod paydo bo'ldi. Bu metoddan ilk marotaba fransuz adabiy tanqidchisi Sharl Ogyusten de Sent-Byov foydalangan bo'lib, shu usul orqali u o'zining *Adabiy portretlar* biografik asarida fransuz tarixida yashab ijod qilgan deyarli hamma adabiyot namoyandalarini qamrab olishga muvaffaq bo'ladi. Biografik metod asnosida yozilgan asarlar bu davrda keng qamrovli bo'lib, hatto davrning siyosiy-ijtimoiy g'oyalari o'zida aks ettirishga va yozuvchilarning o'zaro aloqalarini ham kengroq yoritib berishga qaratilgan edi. Biografik metodning keyingi taraqqiyot bosqichi I. Ten nomi bilan bog'liq. U o'z qarashlari orqali "irq" va "geografik muhit" tushunchalarini kiritib, biografik metodning bu davrdagi xususiyatlaridan ancha uzoqlashadi. Bundan keyingi bosqichlarda biografik metod hech qachon Sent-Byov va Ten davridagi kabi yuksaklik pog'onasiga ko'tarila olmadi.

O'zbek adabiyotshunos olimi B. Karimovning fikricha, "Biografik metod yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanadi. Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e'tibor beradi" (13, 19). Ijodkorning hamda u yaratgan asarlarning mohiyatini tushunish uchun uning biografiyasini yaxshi bilish kerakligini talab qilgan biografik metod haqiqatdan ancha uzoqlashib, tanqidchilik sahnasida o'z kuchini yo'qotdi. Bundan tashqari, keyingi bosqichlarda adabiyotshunoslar muayyan qonuniyatlar ortidan ergashish amaliyotidan voz kecha boshladi va ijodkorning mutlaq erkinligini ta'minlash yo'lidan bordi.

Masalaga yanada chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, XIX asrning taniqli romannavisi Jorj Eliot shu davrda yozilgan biografik asarlarni jiddiy tanqid ostiga olganiga guvoh bo'lamiz. 1879-yilda u o'zining do'stlaridan biriga yozgan xatida "umumiy holatda biografiyalar ingliz adabiyotining illatlaridir" (11, 1) degan ta'rifni keltiradi. Jorj Eliot keyingi o'rinlarda biografiya yozuvchilarining ijodiga batafsil to'xtalib, ulardagi salbiy tomonlarni keskin qoralaydi va ularni "yozuvchining asarlarini chuqurroq o'rganmasdan turib, o'sha bema'ni qiziquvchanligi sabab yozuvchining shaxsiy hayotidagi har xil uydirmalar va tashqi ko'rinishidagi nuqsonlardan rohatlanib yozadiganlar" (8, 163) deya ta'riflaydi. Shubhasiz, Jorj Eliot nafaqat o'z davrining biografik yozuvchilarining bu kabi yondashuvlarini qoraladi, balki keyingi davr biografik asar yaratuvchilar uchun ham ilg'or fikrlarni bildiradi. Balki shu sababdan ham Julian Barns *Floberning to'tiqushi* asarida Jorj Eliotning ijodiga alohida ehtirom ko'rsatib, uning nomini bir necha o'rinlarda iliqlik bilan tilga oladi. "How I prefer George Eliot and even Thackeray to Dickens" ("Men Dikkensdan ko'ra Jorj Eliotni ko'proq afzal ko'raman, undan hatto Tekkerini ma'qulroq deb bilaman") (4, 95), deydi u. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Jorj Eliotning bu kabi g'oyalari bir necha yillar davomida o'zining ijobiy yechimini topa olmadi.

1918-yildan boshlab XIX asrning eskicha va badiiylilik kasb eta olmaydigan biografik asarlariga qarshi o'laroq, Angliyada Litton Strachi va Fransiyada Andre Morua boshchiligidagi "Yangicha biografiya" ("New Biography") (3, 117) deb nomlangan harakat shakllana boshladi. Harakatning asl mazmuni uning quyidagi qarashlarida namoyon bo'ldi: harakat faollarining fikricha, biografiya yozuvchining tasavvuri mahsuli sifatida to'qib chiqarilgan dialoglar, ichki monologlar va roman janridan olib kirilgan bir necha unsurlar vositasida yaratilishi kerak edi. Ammo biografiya janriga bunday yondashuv unda haqiqatdan ko'ra ko'proq uydirmalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lar edi. "Albatta, biograflar voqea-hodisalarni tasavvurlarida yaratishlari mumkin, ammo shaxslar haqidagi hujjat va manbalarni tasavvurlarida yaratmasliklari kerak" (2, 31), deydi L. Idel. Bunday yondashuv biografiyadan ko'zlangan asl natijani taqdim eta olmaydi, chunki undagi hamma narsa tasavvur vositasi xolos, muayyan hujjatlarga asoslangan va yozuvchining teran nigohidagi haqiqatlar emas. "Yangicha biografiya" o'z mavzu doirasidagi masalalarni ham yetarlicha qamray olmagani yangicha uslubda yozilgan "Viktorian davri mashhurlari" (1918) asarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Qolaversa, keyingi yillarda biografik yondashuv shu darajaga yetib bordiki, mashhur shaxslarning shaxsiy va intim hayotidagi sirlarini ommaga oshkor qilish orqali shov-shuvli janrga aylandi. Bunday shov-shuvlarga sabab bo'lgan biografiya — psixobiografiya (*psychobiography*) (3, 118) nomi bilan tanildi. "Psixobiografiya" Freydning psixoanaliz — shaxs taraqqiyotining psixologik nazariyasidan kelib chiqqan bo'lib, o'z subyektining tabiati va xatti-harakatlarini psixologik yondashuv orqali tushuntirishga intiladigan biografiyaning bir turidir. Jan Pol Sartrning *The Family Idiot: Gustave Flaubert* (Oiladagi tentak. Gustav Flober, 1971) biografiyasi xuddi shu yo'nalishda yozilgan, juda ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan asarlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin adabiyotga va uning badiiyatiga bo'lgan tom ma'nodagi qarashlarning o'zgarganligi va ularning postmodernizm atamasi ostida yuritila boshlanishi bilan biografik asarlarga bo'lgan munosabat ham o'zgara boshladi. O'z-o'zidan biografik asarlarni muayyan shaxslarning hayotiy tarixi deyish va shunga amal qilgan holda asar yaratish umumiy holatda uning reallik xususiyatlarini yo'qqa chiqarishi mumkin. Qolaversa, biografik asar subyektining hayotini to'g'ridan to'g'ri o'rganishning imkoni yo'q. Uning hayotlik davridan ayni damgacha bo'lgan hayot yo'li va ijodini yoritishni ko'zlab yaratilgan matnlar va muallifning hayotlik chog'ida o'zi tomonidan yozib qoldirgan va bizgacha yetib kelgan xatlari va yozishmalari hamda ijodiy merosidan foydalanib, uning haqiqiy biografiyasini yaratish mumkin. Shunday uslubdagi biografiyaning nazariy asoslari bir necha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. L. Idel o'zining mashhur *Biografiya va inson haqidagi fan* deb nomlangan essesda "biografiya — rangli

suratlar, bejirim she'riyat va tengi yo'q haykallar yaratishdek oliyanob va sarguzashtlarga boy oliymaqom san'atidir" (*Biography is a noble and adventurous art, as noble as the making of painted portraits, poems, statues*) (2, 27) deya ta'kidlaydi. U, shuningdek, biografiyaning yaratilish jarayoniga kengroq to'xtalib, "... rassomning iqtidori sabab devorlar tilga kiradi, haykaltaroshning mahorati va zehni sabab loyga jon kiradi, ... biografning qo'lida esa nafaqat unda mavjud hujjatlar va hikoyalardan shaxsning haqiqiy qiyofasi yaratiladi, ... balki uning masalaning bir necha tomonini ko'ra olishi va inson hayotidagi barcha holatlarga bo'lgan cheksiz ishtiyoqi qahramonlarining qismatini to'g'ri baholay olishiga sabab bo'ladi", degan g'oyani ilgari suradi.

Binobarin, postmodernizm davriga kelib biografik asarlarga nisbatan ma'lum ma'nodagi amaliy takliflar ilgari surildi va ularning umumiy mazmuni quyidagilardan iborat edi:

1. biografik asar faqatgina arxiv materiallaridagi taqvimiy-xronologik ma'lumotlarni umumlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak;
2. biograf o'z subyektining ruhiy olamini anglab yetgan bo'lishi va uni qamrab turgan muhitdagi uydirmalarni farqlay olishi lozim;
3. biografik asarda yozuvchi o'zi va subyekt o'rtasida kechadigan kurashni, ya'ni subyektining hayoti haqidagi aniq va mavhum tomonlarni inobatga olib, shu ikki ziddiyatli tomonni ma'lum ma'noda bir muvozanatda tutib tura olishi talab etiladi;
4. biografning birinchi navbatda mavjud mavzularni va namunalarni saralab olishi uni subyektining hayotini faqat muayyan sanalar va taqvim tartibida berilgan o'ta jo'n voqealarni tasvirlashdan qutqarishini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, postmodernist biografning to'rt asosiy tamoyilga (2, 34–36) tayanib ish ko'rish asarning samaradorligini ta'minlaydi. Birinchidan, yozuvchi o'zi tanlagan subyektning orzulari, fikrlari va uning tasavvur olamini yaxshi tushunishi kerak; ikkinchidan, yozuvchi obyektiv "ishtirokchi-kuzatuvchi" roliga bo'lishi talab etiladi; uchinchidan, u o'zi yoritib berishni maqsad qilgan masalalarni ochib berishga ko'maklashadigan chin haqiqatlarni astoydil izlashi lozim; va nihoyat, o'z subyektining hayot yo'lini va ijodiy merosini yoritish uchun ideal adabiy shaklni topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natijalar. *Floberning to'tiqushi* romanining sarlavhasida ko'rinib turganidek, Julian Barns o'zining mazkur postmodern biografik asarida Gustav Floberning hayotini qalamga oladi. Floberning hayoti va ijodiy merosi Barnsdan oldin ham bir necha yozuvchi-biograflar tomonidan yoritilgan bo'lib, bu asarlar Barnsning nazdida Floberning nafaqat ijodi, balki hayoti haqida ham chin haqiqatlarni yetkazib bera olmagan. Shuning uchun Julian Barns Floberning tom ma'nodagi haqiqiy biografiyasini yaratish maqsadida, birinchi navbatda, an'anaviy va o'z davrigacha bo'lgan barcha biografik uslublardan chekinadi. Muallif asarda adabiy shakllarga postmodernizmga xos eksperimental usullar orqali yondashadi va postmodernizmning nazariy asosi bo'lgan tarixiy metaadabiyotning haqiqatni yuzaga chiqarishga bo'lgan kuchini to'laqonli namoyish etishga muvaffaq bo'ladi. Julian Barns aniq bir adabiy janr doirasida chegaralanib qolmaydi. Haqiqatni yuzaga chiqarishda u bir vaqtning o'zida bir necha janrlarga murojaat qiladi va ularni bir-biriga qorishtirib yuboradi. Barns o'zining 1999-yilda Rudolf Frayberg bilan bo'lgan intervyusida ta'kidlaganidek, "Ha, qisman men shundayman, qisman ingliz adabiyoti ham xuddi shunday. Shekspir — bizning buyuk adibimiz. Shekspir ham janrlar qorishmasisiz hech narsaga qodir bo'la olmagan bo'lardi. U ritorikaning shakllarini, nazm va nasrni, oliy va quyi sifatlarni, yengil komediya va tragediyani qorishtirgan. Bu — bizning adabiy madaniyatimizga xos xususiyat. Volterning Shekspir haqida yozganlariga e'tibor qaratsak, uning nazdida, Shekspir — "chinakam varvar — haqiqiy daho, ammo tartibsiz" (9, 47).

Bundan tashqari, "janrlarni bir-biriga aralashtirib qo'llash — postmodernizmga xos pastish adabiy uslubining unsurlaridan biri" (5, 19–20) hisoblanadi. Barnsning bunday uslubi adibning ijod mahsuli bilan endigina tanishayotgan kitobxonlar uchun o'ta chalkash va murakkabdek tuyuladi, biroq vaqt o'tishi bilan tugunlar ochiladi, chalkashliklar bartaraf bo'ladi, muammolar yechiladi, albatta, haqiqat yuzaga chiqadi.

Adib *Floberning to'tiqushida* ham juda ko'plab janrlarni qorishtirib yuboradi: xronologiya, manifest, lug'at, imtihon varaqasi, tanqidiy insho, ilovalar va poyezd haydovchilari uchun qo'llanma kabi hujjatli yozishmalar, bestiariy, apokrif, sof hikoya, biografiya va avtobiografiya singari bir necha adabiy janrlar qorishmasini kuzatsak-da, ular yaxlitlikda faqat bir janrning haqiqatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Xronologiyaning ahamiyatli tomoni shundaki, biograf Floberning uch turdagi xronologiyasini, ya'ni tarixiy, shaxsiy va adabiy xronologiyasini keltiradi. Tarixiy xronologiya an'anaviy biografik tuzilishga ega bo'lib, Flober hayotidagi muhim voqealarga, uning ulg'ayishi, ta'lim-tarbiyasi, adabiy merosi va shaxsiy munosabatlari tasviriga faktlar asnosida to'xtaladi, shu yo'l bilan Floberni umuman bilmagan kitobxonlar ham uning hayoti haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladi. Shaxsiy xronologiya Jeffri Breysveytning tasavvuridagi fragmentar xotiralari, o'y-fikrlari, hissiyotlari va subyektiv qarashlaridan iborat. Adabiy xronologiyada esa Floberning ijodiy merosi va uning jahon adabiyotiga ta'siri, adibning uslubi, asarlarida ko'tarilgan masalalar, adibning *Bovari xonim* va *Hislar tarbiyasi* romanlarining tahlillari tasvirlangan.

Xronologiyaga bunday no'an'anaviy yondashuv, bizningcha, biografiyaning badiiyligini ta'minlashga, xotira va tarix tushunchalarining tabiatini ifodalashga hamda shu yo'l bilan biografiya janrining murakkabligini va ziddiyatligini tasvirlashga xizmat qiladi. Asarda tanlangan shaxsning biografiyasini haqiqat tomonida turib hikoya qiladi. Shuning uchun ham *Floberning to'tiqushi* asarini, bir tomondan, biografik roman deya atashimiz, ikkinchi tomondan esa, biografiyaga postmodernizmga xos tarixiy metaadabiyot usuli orqali yondashganligi bois uni postmodern asar sifatida talqin qilishimiz mumkin. Metaadabiyot 1960-yillarda ommalashgan bo'lib, Linda Hatchn nazdida "tarix konsepsiyasi uning asosini tashkil etadi" (12, 90). Shuning uchun ham tarixiy metaadabiyotni postmodern asarlarning amaldagi

shakli sifatida qabul qilish mumkin. Tarixiy metaadabiyot intertekstuallik, o'z-o'zini refleksiv ifoda etish, parodiya, pastish, o'z-o'ziga iqror bo'lish, kinoya, fragmentatsiya va yana bir necha badiiy uslublar bilan xarakterlanadi, albatta, bu kabi postmodernizm adabiyotiga xos xususiyatlarni ushbu romanda ham ko'plab uchratish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, muallif asarning ikkinchi bobida Gustav Floberning hayoti va ijodiy faoliyatini an'anaviy ravishda xronologik tarzda keltiradi. Muallifning bunday xronologik tasvirdan ko'zlagan maqsadi Floberni kitobxonga turli yo'llar bilan tanishtirish va kitobxonga asarni o'zi xohlagan shaklda o'qishga imkon berishdan iborat bo'lishi mumkin. Shubhasiz, "o'z-o'zini badiiy ifoda etuvchi postmodern asarlarda kitobxon badiiy asar syujetining bir qismiga aylanadi. U faol dialoglarga jalb qilinadi, unga badiiy asarni yaratishdagi rolini anglashga imkon beriladi va turli kinoyali savollar bilan uni jarayonda tutib turishga erishiladi" (10, 154-155). *Floberning to'tiqushi* asarida juda ko'p o'rinlarda bosh qahramon, hikoyachi Jeffrining kitobxon bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishganining guvohi bo'lishimiz mumkin:

"Flaubert was nobody's bear. How would you fiddle that into French? Gourstave, perhaps" (Flober hech kimning ayig'i bo'lmagan. Buni fransuzchasiga qanday atasak bo'ladi? Gurstavdir balki?) (4, 52).

"And if you don't like these ironies, I have others". "I must confess that in all the times I read Madame Bovary, I never noticed the heroine's rainbow eyes. Should I have? Would you?" ("Agar bu kabi kinoyalar sizni qoniqtirmasa, menda boshqalari bor. Shuni ta'kidlashim kerakki, shuncha marotaba "Bovari xonim"ni o'qib, Bovari xonim ko'zlarining rangi kamalak rangidaligini sezmasman. Sezishim shartmidi? Siz sezgan bo'larmidingiz?") (4, 69).

Shubhasiz, bu kabi misollar postmodern kitobxonning (*postmodern reader*) yuqorida keltirilgan badiiy roliga yetarlicha dalil bo'la oladi.

Romanning "Topgan Topaloq" ("Finders Keepers") deb nomlangan bobida muallif refleksiv tarzda o'zining biografiya yozayotganligiga ishora qiladi va uni qanday yozish mumkinligini bayon qiladi. Avval baliqlarni tutish uchun mo'ljallangan to'rni tasvirlab, uni qaysi ma'nolarda tushunish mumkinligi haqida to'xtaladi. To'rga lug'atlarda odatda baliqlarni tutish uchun mo'ljallangan qop shaklidagi asbob deb ta'rif beriladi, uning xuddi shunday vazifasidan biografiya yozishda ham foydalanish mumkin (Barnes J. Flaubert's Parrot. – NY. Vintage Ebooks, 1984. – P. 41.), deydi Barns. Demak, Barns sevimli yozuvchisi Floberning biografiyasini yozib, uning "dushmanlari" (biograflari)dan "qasos olish" uchun ularga tuzoq qo'yadi (6, 87) va buni quyidagicha amalga oshiradi.

Barns Floberning hayoti va ijodini ikki xil adabiy janrdan (asarning to'rtinchi va to'qqizinchi boblari) foydalangan holda betakror poetik tarzda tasvirlaydi. "Flober Bestiariysi" ("The Flaubert Bestiary") bobi Floberning shaxsiyati va tabiatini bestiariy janri orqali o'rganishga bag'ishlangan. Bestiariylar o'rta asrlar ingliz adabiyotida "tabiat kitobi", "hayvonot kitobi" nomlari bilan mashhur bo'lgan. Ular hayvonlarni turli badiiy vositalar bilan tasvirlab, shu tasvirlar vositasida hosil bo'lgan bilimlar ramziy ta'limotlarni tushunishda qo'llanilgan. Eng ahamiyatlisi, bestiariylar xristian ta'limotidan oldin ham mavjud bo'lgan. Ammo o'rta asrlarda Injilda keltirilgan hayvonot olamidani insonlarga ibrat keltirish manbayi sifatida xizmat qilgan. Julian Barns an'anaviy bestiariy janrini muammoli vaziyatlarga moslashtirib, zamonaviy kontekstda qo'llaydi va jonzoat hamda inson hayoti o'rtasida ramziy bog'liqlik yaratishga muvaffaq bo'ladi. Barns Floberni bir necha hayvonlarga, masalan, arslonga, hind yo'lbarsiga, bo'g'ma ilonga, ho'kizga, filga, kitga qiyoslaydi. Floberning o'z yozishmalaridan olib qaralganda esa:

"He is an oyster in its shell (1845); a snail in its shell (1851); a hedgehog rolling up to protect itself (1853, 1857). He is a literary lizard basking in the sun of Beauty (1846), and a warbler with a shrill cry which hides in the depths of the woods and is heard only by itself (also 1846) va "He becomes as soft and nervous as a cow (1867); he feels as worn out as a donkey (1867); yet still he splashes in the Seine like a porpoise (1870). He works like a mule (1852); he lives a life which would kill three rhinos (1872); he works 'like XV oxen' (1878); though he advises Louise Colet to burrow away at her work like a mole. He works 'like XV oxen' (1878); though he advises Louise Colet to burrow away at her work like a mole (1853). To Louise he resembles 'a wild buffalo of the American prairie' (1846). To George Sand, however, he seems 'gentle as a lamb' (1866) – which he denies (1869) – and the pair of them chatter away like magpies (1866); ten years later, at her funeral, he weeps like a calf (1876). Alone in his study, he finishes the story he wrote especially for her, the story about the parrot; he bellows it out 'like a gorilla' (1876)" (U chig'anoqdagi ustritsa, qobiqdagi shilliqurt, o'zini himoya qilishga kirishgan tipratikan, go'zallik oftobida toblanib yotgan kaltakesak, o'rmonda yashirinib olgan va ovozi o'zidan boshqa hech kim eshitmaydigan moyqut qushi. Sigirday yuvosh va asabiylar, garchi eshakdek madorsiz bo'lsa ham, Sena daryosiga delfindek sakray oladi, xachirdek mehnatkash, uchta karkidonni halok qiladigan shijoat bilan yashaydi. U o'n beshta ho'kizning ishini qila oladi, do'sti Luizani xuddi krotdek ishga sho'ng'ib ishlashga undaydi, o'z o'rnida Luiza uni Amerika adirlaridagi yovvoyi buyvollarga qiyoslaydi, garchi Flober bundan tonsa ham, Jorj Send uni qo'zichoqdek yuvosh deb tasvirlaydi, ikkalasi olaqarg'alardek suhbat qurishadi. Jorj vafot etganda esa xuddi buzoqcha singari ko'z yosh to'kadi, unga atab to'ti hikoyasini xuddi gorilladek bo'kirib yozadi) (4, 52).

Aslida esa u haqiqiy ayiq edi, o'zi ovoza qilganidek, oq ayiq edi. Aynan oq ayiq edi, chunki boshqa rangli ayiqlarni qo'lga o'rgatish mumkin, ammo oq ayiqni jilovlab bo'lmaydi. Mashhur ayiq masalida rivoyat qilingan ayiqdek sodiq edi, ammo o'rni kelganda, asl ayiqlik tabiati sabab pashshani o'ldiraman deb, do'stini ham o'ldirib qo'yishi mumkin edi. Agar u ayiq bo'lmaganda, albatta, xuddi tuya kabi edi, aynan dromader tuyasi kabi. Bu tuyalar to'xtab qolsa, yurgizish, yurib ketga, to'xtatib qolish qiyin bo'lgan tuyalardir. Flober xuddi shunday o'jar edi.

Flober qo'ylarni yaxshi ko'rardi. Ammo Floberning do'sti Dyu Kem uning qo'yini ham, o'zini ham boshqara olishga qodir emasligini aytib, uyiga uni ko'rgani kelgan do'sti va uning qo'yini quvib solganini yozib qoldiradi. Flober esa xuddi shuni (qo'yining do'stining uyida axlat qilib ketganini) bir necha yillar eslab, do'stining ustidan kulib yuradi. Barns insondagi bu kabi "hayvoniylik" xislatlarini uning tabiatidagi chin insoniylikni namoyon etuvchi haqiqatlarning belgilari sifatida ko'rsatmoqchi bo'lgandir. Floberning bunday tabiatida Sartr yaratgan idiotizmni ko'rish imkonsiz.

Albatta, sanab o'tilgan hayvonlar orasida nomi zikr etilgan to'tilarni ham tahlil qilishimiz kerak. Asarda jami yettita to'ti bo'lib, ularning bittasi Floberning "Oddiy yurak" asari qahramoni Felisitning to'tisi — Lulu, to'qima obraz qiyofasidagi to'ti. Ikki ita ichi to'ldirilgan, biri Dyū Otel muzeyidagi, ikkinchisi Kruassedagi soxta to'tilar. Qolgan to'rttasi asl to'tilar bo'lib, ularning ikkitasi Truvilda, bittasi Venetsiyada hamda Antibdagi bitta qari, dumi uzun — vaysaqi to'ti. Floberning bestiariysida hikoyasi keltirilgan bir odam o'z to'tisini shunchalik yoqtirganidan, o'zida to'tilik sifatlarini namoyish qilishni boshlaydi, daraxtga chiqib, to'tidek osilib turadi va faqatgina to'tisining qafasini ko'rgandagina pastga tushadi. Ammo to'tilarning Floberga hech qanday aloqasi yo'q. Floberda ba'zi tanqidchilar da'vo qilganidek to'tilik xususiyatlari bor deyish yoki to'tilarning ilhom parisi sifatida xizmat qilgan deyish Floberga nisbatan xiyonat sifatida qabul qilinishi kerak. Haqiqiy to'tilar yozuvchilarning gaplarini ko'chirib oladigan tanqidchilardir (6, 87). Floberning shaxsiy hayotini idiotizm darajasiga olib chiqqan tanqidchilar o'z tanqidlarining qurboni bo'ladilar. Floberning biri ish stolida Kruasseda turgan va biri muzeyda saqlanadigan to'tilarning haqiqiyisini bilish maqsadida Parijga kelgan Breysveyt uning asl nusxasini topa olmaydi. Chunki ularda hech qanday haqiqat yo'q, ular shunchaki soxta to'tilar. Parijga uni yetaklab kelgan maqsad Floberning hayotini o'rganish emas edi. U Floberni Parijga kelmay turib ham juda yaxshi bilar edi. Flober haqida yaratilgan, ammo haqiqatga umuman to'g'ri kelmaydigan tanqidiy yondashuvlardan haqiqat izlab keladi va uni topa olmaydi.

Asardagi eng asosiy boblardan biri — Flober apokrifi bobi bo'lib, bunda Barns Floberning uydirmalardan xoli hikoyasini apokrif orqali ochib berishga harakat qiladi. Apokrif asl holatida saqlanmagan deb topilgan hamda Injilning ilk Ahdiga kiritilmagan diniy qo'shiqlar, madhiya va ibodat so'zlaridan iborat. Bu apokriflar qadimgi yunon tili va g'oyalarining yahudiylarga katta ta'sir o'tkazganligini ko'rsatadi. Apokriflar o'zining kelib chiqishi va yaratilish maqsadlarining mavhumligi sabab olimlar uchun juda katta jumboq bo'lib qolmoqda. Injilda hikoyasi keltirilmagan uch soqchi haqidagi rivoyat qadimgi forslar shohi Doro davrida bo'lganligi va mohiyatan juda katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Naql qilinishicha, uch soqchidan "Eng kuchli narsa nima?" degan savolga birinchi soqchi "musallas" deb javob beradi. Ikkinchisi esa "Qirol" deydi. Va nihoyat, uchinchi soqchi Zerubbabel ikki xil javob aytadi: "Eng kuchlisi ayollar, ammo alaloqibat, haqiqat g'olibdir", deydi va bu bahsda yutib chiqadi. Mukofot tariqasida shoh Doro unga ibodatxona qurishiga ruxsat beradi. Rivoyat Zerubbabelning unga shunday donolikni bergani uchun Yaratganga hamd aytishi bilan yakunlanadi. Barnsning bu qistirma hikoyani bayon qilishidan maqsad eng kuchli narsa — haqiqat ekanini ta'kidlash edi, uning e'tiroficha, u albatta g'alaba qozonadi. Barnsning o'zi esa haqiqat yo'lidagi kurashchi.

Romandagi "Flober apokrifi" deb nomlangan bob muallifning bir emas, uch haqiqatni bayon qilishi bilan boshlanadi. Bu haqiqatlar Jeyms Fenton ijodiga mansub she'r bo'lib, undan parcha keltiriladi:

"It is not what they built. It is what they knocked down.

It is not the houses. It is the spaces between the houses.

It is not the streets that exist. It is the streets that no longer exist"

(Bu qurganlari emas, bu buzganlaridir.

Bu uylar emas, uylar orasida qolib ketgan joylardir.

Bular hali ham bor ko'chalar emas, endi ular umuman yo'q ko'chalardir) (4, 112).

Bu bobning Floberning apokrifi deb nomlanishiga eng asosiy sabab, nazdimizda, Floberning yozishni niyat qilgan, ammo yozishga muvaffaq bo'lmagan asar chizgilaridir. Barns uning apokrifini adibning xatlaridan havolalar keltirib, intertekstual vositalar orqali yoritadi. Barnsning nazdida, muallifning bu kabi chizgilari u yaratgan ijod mahsullarining mohiyatini va badiiyatining o'ziga xos tomonlarini tushunishda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, Floberning xayollaridagi kabi hayot tarzini yaratishga bo'lgan urinishlari — uning apokrifik hayoti edi. Apokrifik xayoliy hayotida u Grand Kanalda kichkina qasrda yashashni istardi, Flober buni shunday e'tirof etgan: "mening shaxsiy orzum" ("my personal dream"). U hammasidan voz kechib, o'sha yoqqa ketishga, abadulabad qolishga va dunyoni tark etib ketishga ham tayyor edi, ammo bunday qilmadi. Balki insonning haqiqiy tabiati haqida uning orzularidan emas, armonlaridan bilib olish kerak.

Ajablanarlisi shundaki, asarning o'ninchi bobi "Qarshi ish" sarlavhasi ostida yozilgan bo'lib, Flober apokrifida bilganlarimizning aksidir. "Qarshi ish" — muallifning, bizning, kitobxonlarning, Floberni bilgan jamiyatning, uni umuman bilmasdan turib, unga to'n bichganlarning, shuningdek, tanqidchilarning uydirmalari sabab ommalashgan "haqiqatlari"ga raddiyasidir. Bu bob Barnsning Flober "ishi"ni sudga oshirib, uni minbarda turib himoya qilishiga o'xshaydi. Uning shaxsiyatiga, umr yo'liga va ijodiy merosiga otilgan toshlarni birma-bir hisob-kitob qiladigan sud jarayoni. Shubhasiz, sudda Breysveyt (balki Barns) yutib chiqadi.

Asarning "Sof hikoya" bobida Jeffrining voqealar yakuniga qadar oshkor qilinmagan siri ayonlashadi. Jeffrining ham rafiqasi Bovari xonim romani qahramoni Emma Bovari singari Jeffriga xiyonat qilgani va bunday hayotiy haqiqatni Floberning aynan voqelikdan olib yozgani ma'lum bo'ladi. "Sof hikoya" — Jeffrining iqrornomasi bo'lib, u Floberga ergashib, o'z ayolini kechirishi kerakligini tushunadi. Jeffri Breysveyt qahramoni aslida uydirma qahramon bo'lsa-da, asarda u juda muhim ahamiyatga ega. Postmodern romanlarda badiiy obrazning tafakkurida badiiy obraz yaratiladi (16, 173) va matnlararo ko'priq, bog'liqlik, intertekstuallik shu jarayonda hosil bo'ladi. "Floberning to'tiqushi" romanida esa badiiy obrazning tafakkurida real qahramonning obrazi yaratiladi.

Ba'zan tanqidchilarni roman asar qahramoni — Breysveyt nomidan yozilganmi yoki Barns tomonidanmi, degan savol qiynaydi. Bizning fikrimizcha, asarda Barns diktovka, ya'ni aytib turuvchi kabidir. Bir o'rinda u *"if I were a dictator of fiction"* (agar men adabiyotning diktatori bo'lganimda ...) (4, 112) degan da'vosida o'zining yozuvchi sifatidagi o'rniga ishora qiladi. Albatta, u o'zining bu uslubiga ochiq-oydin da'vo qilmaydi, ammo xuddi shunday yozadi. Ushbu asarida Barns — *"The author in his book must be like God in his universe, everywhere present and nowhere visible"* (Koinotdagi Yaratuvchi kabi har joyda bor, ammo hech qayerda yo'qdek) (4, 87). Breysveyt Barnsning buyruqlarini xuddi Barns

aytganidek, sidqidildan, albatta, teran mushohada va donolik bilan bajarib kelishga shay, sadoqat timsolidir.

Jeffri Breysveyt Floberning asarlariga bo'lgan muhabbatini, o'z hayotida sodir bo'lgan voqealarning Floberning mashhur *Bovari xonim* asaridagi voqealarga tutash tarzda o'xshashligini bir necha murakkab usullar bilan, ammo mazmunli ifodalab beradi. Bu o'xshashlik parodiyaga xos, chunki Jeffri — *Bovari xonim* asari qahramoni Charlzning, uning xotini Ellen esa Emmaning hayotdagi nusxasi. Ellen ham Emma kabi o'z eriga xiyonat qiladi, xuddi Emma kabi o'z joniga qasd qiladi. Jeffrining asar qahramoni sifatidagi vazifasi faqat asar voqealarini hikoya qilib berishdangina iborat bo'lmagan, o'zining ham haqiqiy hikoyasini bayon qilish, *Bovari xonim*dek asarning hayotiyiligiga iqrar bo'lish, albatta, Floberning inson qalbini boricha tushuna olganligini namoyish qilish bo'lgandir, balki.

Barns Breysveytni Parijga jo'natib, Floberning ichi to'ldirilgan soxta to'tiqushining asl nusxasini qidirtiradi va izlanishlari jarayonida Floberning hayoti haqidagi faktlarni saralaydi. Floberning hayoti va ijod mahsullarini an'anaviy xronologiya tarzida, ammo o'z-o'zini refleksiv badiiy ifoda etish orqali keltiradi, turli janr shakllari mohiyatan har xil mazmun hosil qilishi mumkinligiga dalolat qiladi. "Flober Bestiariysi"da Floberning shaxsiyati va tabiati hayvonlardagi xususiyatlar orqali tasvirlanadi. Insoniy sifatlarni insonlarga qiyoslab keltirish postmodernistlar nazdida hech qanday mazmun kasb etmagani sababli hayvonlardagi oshkora va yashirin xususiyatlar orqali ifodalanadi. Floberning apokrifida Barns tomonidan Floberning xatlaridan havolalar keltirilib, intertekstual vositalar orqali u haqida aytilmagan haqiqatlar yuzaga chiqariladi. Floberning hayoti haqida to'qib chiqarilgan uydirmalarning — ommalashib ketgan "haqiqatlar"ning sarhisobi "Qarshi ish"da xuddi sud jarayonidagidek ko'rib chiqiladi va Breysveytning g'alabasi bilan yakun topadi.

Xulosa

Xullas, adibning *Floberning to'tiqushi* romani postmodern tarixiy-biografik metaadabiy roman bo'lib, biografiya janriga dekonstruktiv yondashuv asosida yozilgan. Romanda XIX asr yirik fransuz yozuvchisi Gustav Floberning hayoti asar roviysi Jeffri Breysveytning shaxsiy kechinmalari orqali yozuvchini "ta'qib qilgan holda" bayon qilinadi. Asarning har bir bobi (o'n besh bob) alohida adabiy janr me'yorlarida intertekstual allyuziv nomlardan ko'plab foydalanish orqali yozilgan. Romandagi xronologiya, manifest, lug'at, imtihon varaqasi, tanqidiy insho, ilovalar va poyezd haydovchilari uchun qo'llanma kabi hujjatli yozishmalar, bestiariy, apokrif, sof hikoya, biografiya va avtobiografiya singari bir necha adabiy janrlar qorishmasi bir janrning haqiqatni yuzaga chiqarishiga xizmat qilganligini ko'rish mumkin. Mazkur romanida Barns o'zining betakror adabiy yondashuvi bo'lgan janrlar qorishmasidan foydalanib, postmodern biografiya janrining nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'ladi. Bir necha asrlar davomida har xil yondashuvlar sabab haqiqatdan ancha yiroqlashib ketgan biografiya janrining adabiyotdagi haqiqiy o'rnini tiklaydi. Postmodernizmning obyektiv rivoya mezonlariga amal qilgan holda asar hikoyachisining asardagi vazifalarini muayyan mezonlar doirasida belgilab beradi. Asar qahramoni Jeffri Breysveyt o'zining teran mushohadalari bilan nafaqat Floberning biografiyasini bayon qiladi, balki hikoya jarayonida o'zining hayotiy iqrornomasini kitobxonga ayon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams M. H. *A Glossary of Literary Terms*. – 9th ed. – USA: Wadsworth Cengage Learning, 2009. – P. 25.
2. Auty P., Edel L., Holroyd M., Manganyi N. C., Merle G., Peters M., Saeki S. *New Directions in Biography: Essays* / ed. and with a foreword by Anthony M. Friedson. – USA: Biographical Research Center, University Press of Hawaii, 1981. – P. 31.
3. Baldick C. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. – New York: Oxford University Press, 2001. – P. 117.
4. Barnes J. *Flaubert's Parrot*. – New York: Vintage Ebooks, 1984. – P. 95.
5. Bhattarai K. P. *The Politics of Postmodern Narrative: Julian Barnes's Flaubert's Parrot as a Historiographic Metafiction*. – Kathmandu: Central Department of English, 2009. – P. 19–20. – Electronic Library of Tribhuvan University.
6. Cazzato L. *Metafiction of Anxiety*. – Italy: Schena Editore, 2000. – P. 87.
7. Cuddon J. A. *A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. – 5th ed. – UK: John Wiley & Sons, Ltd., 2013. – P. 95.
8. Ermarth E. D. *George Eliot*. – Boston: Twayne, 1985. – P. 163.
9. Guignery V., Roberts R. *Conversations with Julian Barnes*. – USA: University Press of Mississippi, 2009. – P. 24.
10. Guillén C. *Literature as System*. – Princeton: Princeton University Press, 1971. – P. 154–155.
11. Henry N. *The Life of George Eliot: A Critical Biography*. – 1st ed. – UK: Blackwell Publishing Ltd., 2012. – P. 1.
12. Hutcheon L. *A Poetics of Postmodernism*. – USA: Routledge, 1988. – P. ix.
13. Karimov B. *Adabiyotshunoslik metodologiyasi*. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2001. – B. 19.
14. McHale B., Platt L. *The Cambridge History of Postmodern Literature*. – USA: Cambridge University Press, 2016. – P. 315.
15. Nicol B. *The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction*. – UK: Cambridge University Press, 2009. – P. 117.
16. Xajiyeva F. *Amerika postmodern adabiyotida biografik roman poetikasi (J. Parini, M. Kanninghem va L. Lalami asarlari misolida)*. – Buxoro, 2022. – B. 173.